



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

FILOLOGIYA

O‘ZBEK MILLIY HARAKATLI O‘YINLARI TILINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Durdona XUDAYBERGANOVA¹

¹O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti professori, filologiya fanlari doktori

KALIT SO‘ZLAR

O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari nomlari, lingvomadaniyatshunoslik, olamning lisoniy manzarasi, olamning qadriyatli manzarasi, madaniy kod, lingvomadaniy kod, antropomorfizm, biomorf kod, zoomorf kod, predmetli kod, aksiologik tilshunoslik, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Названия узбекских национальных подвижных игр, лингвокультурология, языковая картина мира, ценностная картина мира, культурный код, лингвокультурный код, антропоморфизм, биоморфный код, зооморфный код, предметный код, аксиологическая лингвистика, национальные ценности, социально-нравственные ценности

KEY WORDS

Names of Uzbek national action games, linguoculturology, linguistic picture of the world, value picture of the world, cultural code, linguistic and cultural code, anthropomorphism, biomorphic code, zoomorphic code, subject code, axiological linguistics, national values, socio-moral values.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalq milliy o‘yinlari tilining lingvomadaniy xususiyatlari yoritilgan, unda o‘zbek milliy harakatli o‘yinlar mazmuniga lingvomadaniy aspektda yondashilgan. Maqolada bunday o‘yinlarning nomlari turli lingvomadaniy kodlar sifatida voqelanishi lingvistikadagi madaniy kodlar nazariyasi asosida tahlil qilingan. Shuningdek, o‘zbek milliy harakatli o‘yinlari mazmunida milliy qadriyatlarning aks etishi, shu sababli ular lingvomadaniyatshunoslikning bo‘limlaridan biri hisoblangan aksiologik tilshunoslikning obyekti bo‘la olishi muayyan o‘yinlarning mazmun-mundariyasi asosida isbotlangan.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены лингвокультурологические особенности языка узбекских национальных игр, содержание узбекских национальных игр рассмотрено в лингвокультурологическом аспекте. В статье реализация названий таких игр в качестве различных лингвокультурных кодов проанализировано на основе теории культурных кодов в лингвистике. Также на основе содержания определенных игр доказано отражение национальных ценностей в содержании узбекских национальных подвижных игр, благодаря чему они могут стать объектом аксиологической лингвистики, которая считается одним из разделов лингвокультурологии.

ABSTRACT

This article highlights the linguistic and cultural features of the language of the Uzbek national games, the content of the Uzbek national games is considered in the linguistic and cultural aspect. In the article, the implementation of the names of such games as various linguistic and cultural codes is analyzed on the basis of the theory of cultural codes in linguistics. Also, based on the content of certain games, the reflection of national values in the content of Uzbek national outdoor games has been proved, so that they can become the object of axiological linguistics, which is considered one of the sections of linguoculturology.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Kirish. Xalq o‘yinlari insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida o‘sha davr kishilarining turmush tarzi, mehnat sharoiti, milliy xarakteri, diniy qarashlari kabi omillarni o‘zida mujassam etib kelgan. Xalq o‘yinlari ishtirokchilarda abjirlik, kreativlik, chidamlilik, g‘ayratlilik, jismonan kuchli bo‘lishlik sifatlarini shakllantirish va tarbiyalashga xizmat qilgan. Dastlabki o‘yinlar insoniyatning bolaligi bo‘lgan terib yeyish davri bilan bog‘liq bo‘lgan. “Keyinchalik o‘yinlar mundarijasiga ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bog‘liq turlari kirib keldiki, bu hayotiy jarayonlar, yashash uchun harakat qilish, intilish bilan bog‘liqdir. Ta‘bir joiz bo‘lsa, bu o‘yinlar o‘sha davrdayoq odamlarning tabiat injiqliklariga dosh berishlariga, turli kasalliklarni yengib o‘tishlariga zamin hozirlab bordi. O‘yinlarda tevarak-atrofdan yuz berayotgan voqea-hodisalar syujetlari jonlantirib borilgan. Syujetlar odamlarning hayoti bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan” [6; 3].

Ibtidoiy insonlarning hayot tajribasi osha borgan sari ularda yovvoyi hayvonlardan saqlanish, o‘z hududini begonalardan asrash, yirtqich hayvonlar bilan olishuvda nihoyatda abjir va kuchli bo‘lish hissiyoti shakllangan. Qabila boshliqlari yoshlarni kuchli va chaqqon qilib tarbiyalashga e‘tibor qarata boshlaganlar. Urushlar yuzaga kelishi natijasida esa bu hayotiy zaruratga aylangan. Ana shu kabi jarayonlar keyinchalik xalq o‘yinlari tarkibidan muayyan element sifatida joy olgan [8; 8-10].

Ta‘kidlash joizki, barcha dunyo xalqlarining o‘z milliy o‘yinlari bo‘lgan. Rossiya xalqlarida konkida uchish, chang‘ida yurish, mushtlashish, muzda cho‘milish,

kurash, bug‘u, itlarni aravaga qo‘shib poygalar uyushtirish qadimgi davrlardan mavjud bo‘lgan. Hindistonda fillarni va ilonlarni o‘yinga o‘rgatish, chim ustida xokkey milliy o‘yinlar hisoblangan. Arab mamlakatlarida qadimdan otida poyga, ot sakratish musobaqalari o‘tkazib kelingan. Afrika mamlakatlarida nayza, kamondan o‘q otish o‘yinlari uyushtirilgan. Koreya, Xitoy, Yaponiya, Tayvan kabi mamlakatlarda esa yakka kurash turlari bilan shug‘ullanish keng tus olgan. Kavkaz xalqlarida kurash, ot o‘yinlari mashhur hisoblangan. Qadimgi o‘yinlarning ko‘pchiligi keng tarqalib, sport turlariga aylangan. Bu kabi xalq o‘yinlari keyinchalik turli sport federatsiyalarining tuzilishiga, Yevropa va Jahon birinchiliklari hamda Olimpiya o‘yinlarining tashkil etilishiga sabab bo‘lgan [8; 8-9].

O‘zbek milliy o‘yinlari 2-3 ming yillik tarixga ega bo‘lib, o‘zida xalqning ruhiyati, ma‘naviy dunyoqarashi, urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini namoyon etadi. O‘zbekiston hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan ashyolar, g‘orlarning devorlariga chizilgan rasmlar milliy o‘yinlarning qadimdan davom etib kelayotganini isbotladi. Boshqa xalqlar kabi, o‘zbek xalqida ham milliy o‘yinlar ijtimoiy tuzum xarakteriga ko‘ra shakllanib borgan.

O‘zbek xalq o‘yinlari o‘yin ishtirokchilarning yoshiga, jinsiga, joyiga, kasbiga, mavsumga, yashash hududiga qarab turli vaqtda, turli joyda va turli usullarda o‘tkazilgan.

O‘zbek xalq o‘yinlari turlaridan biri milliy harakatli o‘yinlar hisoblanadi. Mazkur o‘yin turi bo‘yicha pedagogik, etnopsixologik, etnografik xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar e‘lon



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

qilingan [6, 8, 13, 14, 15]. Ammo, aytish joizki, shu vaqtga qadar ularning lingvistik xususiyatlari o‘rganilgan emas. Milliy harakatli o‘yinlarning lisoniy xususiyatlari ularni lingvomadaniy aspektda o‘rganishni taqozo etadi. Zero, bu o‘yin turi lingvomadaniy kontekst sifatida o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Maqolada shu xususida so‘z yuritimiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalarini hamkorligida yuzaga kelgan [9; 8-9], fanlar integrallashuvi mahsuli bo‘lgan lingvomadaniyatshunoslik antropotsentrik soha sifatida fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy konnotativlik, madaniy sema, pretsedent birliklar, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi, olamning qadriyatli manzarasi kabi bir qator yangi tushunchalarni olib kirdi. Ular qatorida madaniy kodlar tushunchasi alohida mavqega ega. Ma’lumki, olamni idrok etishning har bir til jamoasi ongida tarixan shakllangan, barqarorlashgan va ayni shu jamoa uchun xos bo‘lgan odatiy va majburiy usullari majmuyi olamning lisoniy manzarasini yuzaga keltiradi. Olamning lisoniy manzarasi dunyoni idrok etish va konseptualashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullari yig‘indisidir. Lingvomadaniyatshunoslikda madaniy kodlar olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof qilinadi [7; 79]. V.N. Teliyaning fikriga ko‘ra, madaniyat kodlari – muayyan madaniy mazmuni kodlashtirish maqsadida qo‘llanuvchi turli moddiy va formal vositalardan iborat ikkilamchi belgilar tizimidir. [10; 13]

D.B.Gudkov, M.L.Kovshovalarning madaniyat kodlari xususidagi ta’rifi ham yuqoridagi ta’rifga yaqin: “Madaniyat kodlari – insonning moddiy va ma’naviy olamiga oid bo‘lgan madaniy mazmuni ifodalovchi belgilar tizimi, ular verbal shaklda ham, noverbal shaklda ham bo‘lishi mumkin” [2; 6].

Madaniyat kodlari xususidagi ilmiy ta’rif va talqinlardan kelib chiqib aytish mumkin, ushbu termin muayyan madaniy mazmuni shartli, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimini bildiradi. Madaniy kodlar inson tomonidan olamni kategoriyalashtirish jarayonining mahsulidir va bunda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, inson tili madaniy mazmunning eng muhim ifodachilaridan biri hisoblanadi. Lingvomadaniy kodlar madaniy kodlarning til vositasida voqelangan shaklidir. Lingvomadaniy kodlar tilda asosan xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg‘un o‘xshatish, metafora, qarg‘ish, duo va olqishlar kabi lingvomadaniy birliklarda in’ikos etadi. Bunday kodlarda insonlarning moddiy va ma’naviy olam haqidagi tasavvurlari, milliy-obrazli tafakkuri, aksiologik qarashlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Lingvomadaniy kodlar xususidagi nazariyadan olamning lisoniy manzarasini tadqiq etishda, muayyan etnosning milliy tafakkuriga xos qonuniyatlar tadrijini aniqlashda foydalanish mumkin. Ayni vaqtda, ta’kidlash lozimki, lingvomadaniyatshunoslik birinchi navbatda mental tushunchalar va lisoniy birliklar aloqasini o‘rganuvchi sohadir. Lingvomadaniy kodlar birinchi navbatda xalqning milliy-madaniy xususiyati bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Ilmiy adabiyotlarda lingvomadaniy kodlarning turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod, ma’naviy kod [4, 8], antropomorf kod, fazoviy kod, urushga doir kod, tibbiy kod, me’moriy kod, sport kodi, geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi [7], mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kodi [5; 169] kabilar qayd etiladi.

Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat kodlarining asosiy turlari borasida V.V. Krasnixning tasnifi e’tirof etiladi. Olim somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod hamda ma’naviy kodni madaniyat kodlarining eng asosiy turlari sifatida belgilaydi. Uning fikricha, mazkur kodlarda ifodalangan mazmun olamning tuzilishi haqidagi ilk sodda taassurotlarni namoyon etib, rus madaniyatining arxetipik tasavvurlariga muvofiq keladi [3; 8].

O‘zbek milliy o‘yinlari o‘z mazmuniga ko‘ra lingvistik aksiologiyaning – qadriyatlar tizimiga doir tushunchalarning tilda aks etish mexanizmlari va usullarini o‘rganuvchi tilshunoslik yo‘nalishining ham obyekt bo‘la oladi [12; 14]. Zero, mazkur o‘yinlar mazmunida lingvomadaniy hamjamiyat vakillari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar ta’kidlab ko‘rsatiladi. Qadriyat bu –muayyan tarixiy davrda shu davr kishilari uchun ijtimoiy jihatdan ahamiyatli deb hisoblangan, ular uchun ijobiy-aksiologik ahamiyat kasb etgan ideal hodisalardir. Qadriyatlar ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan umuminsoniy (global) va milliy qadriyatlar sifatida ikkiga ajratiladi. Muayyan lingvomadaniyatda amal qiluvchi qadriyatlar tizimi xususidagi stereotiplar o‘sha lingvomadaniy hamjamiyat a’zolarining

lisoniy ongida aks etadi. Bu esa mazkur stereotiplarning til sohiblari tomonidan yaratiladigan olamning qadriyatli manzarasida ham verbal tarzda namoyon bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shu ma’nodan o‘zbek madaniyatidagi qadriyatlarni lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishlaridan biri hisoblangan aksiologik tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham o‘rganish mumkin.

Natijalar. O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari nomlari o‘z tabiatiga ko‘ra turli lingvomadaniy kodlar sifatida voqelanadi. Mazkur atamalar tizimiga kiruvchi birliklar orasida biomorf kod turlaridan biri hisoblangan antropomorf kod ko‘p uchrashi xarakterli holat sifatida ko‘zga tashlanadi. Insonning flora va fauna haqidagi tasavvurlari biomorf kodlarda aks etadi. V. V. Krasnixning ta’kidiga ko‘ra, turli lingvomadaniyatlardagi ko‘plab etalonlar biomorf kodlar mahsuli sifatida yuzaga kelgan [3; 16].

Til va madaniyat uzviyligini tadqiq etuvchi soha hisoblangan lingvomadaniyatshunoslik asoschilaridan biri V.N. Teliya shunday yozadi: “Madaniyatning o‘ziga xos “tili” bor: u biz bilan me’morchilik, rassomchilik, musiqa, raqs, adabiyot va insoniyatning boshqa ijod mahsullari orqali so‘zlashadi. Lekin madaniyat “tili” ning eng universal vositasi tabiiy tildir [9; 12]. O‘zbek milliy harakatli o‘yinlarining mazmuni, ularning nomlari, bu o‘yinlarda aytiladigan dialoglar bu turdagi o‘yinlarning xalq madaniyati ifodachisi ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, o‘zbek milliy harakatli o‘yinlari nomlari ma’lum ma’nodan o‘zbek tili sohiblariga xos olamning lisoniy manzarasini namoyon etadi. Xalq turli milliy o‘yinlarni ijod qilishda o‘zi yashab turgan muhitdagi shaxslar,



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

predmetlar, hayvon va qushlar, tabiat hodisalari haqidagi tushunchalardan foydalangan. Mazkur tushunchalarni bildiruvchi obyektlar o‘yinlar tarkibida turli vazifalarda qo‘llangan. Aytish joizki, milliy o‘yinlar ko‘p hollarda antropomorfizmga asoslanganligi bilan ajralib turadi. O‘yinlarda turli hayvonlar va predmetlarga insonning harakatlari va xususiyatlari ko‘chiriladi. Ularda, xuddi ertaklardagi kabi, jonsiz narsalar odam kabi harakatlanadi (Nina va ip), hayvon va qushlar odam kabi fikrlaydi va so‘zlaydi (Cho‘loq qarg‘a, Echki bolalar). O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari nomlarining semantik tasnifi o‘zbek xalqining olamning lisoniy manzarasini yaratish tarzi haqida muayyan tasavvurlarni hosil qiladi. Milliy harakatli o‘yinlar nomlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Odam tushunchasini ifodalovchi nomlar: a) qarindosh-urug‘chilikni bildiruvchi so‘zlar: *Ona va bola, Yaxshi ona, Yaxshi ota, Kelin-kekin, Xola-xola, Xolakam* va boshqalar; b) lavozim va kasb-hunar egasini bildiruvchi so‘zlar: *Podsho-vazir, Podachi, Izvoshchi, Sartarosh, Chavandoz va egarchi, Qorovul, Kashtachi* va b.

2. Hayvonot olamini ifodalovchi nomlar: a) hayvon va jonvorlarni bildiruvchi so‘zlar: *Sichqon-mushuk, Qari bo‘ri, Bo‘ri va qo‘ylar, Insiz quyon, Echki bolalari;* b) qush va parrandalarni bildiruvchi so‘zlar: *Laylak keldi, Burgut keldi, Xo‘rozlar jangi, Cho‘loq qarg‘a, Chag‘alay, Tapir-tupur qaldirg‘och* va b.

3. O‘simliklarni bildiruvchi nomlar: *Oq terakmi, ko‘k terak, Chuchmoma, Yong‘oq, Ko‘k* va b.

4. Predmetlarni bildiruvchi nomlar: *Nina va ip, Chillak, Lanka, Qopqon, Darra,*

Savat, Zanjir, Durra, Do‘ppi yashirar, Belbog‘, Sandal-sandal, Latta koptok, Sopoltosh, Tayoqlar jangi, Karnaymi, surnay? va boshqalar.

5. Harakatni ifodalovchi nomlar: *Arqon talashish, Yelkada kurashish, Danak yashirish, Qidirib top, Urub qochdi, Ko‘rpa yopindi, Oshqovoq uzdi, Buta soldi, Do‘ppi yashirar* va b.

6. Xususiyatni ifodalovchi nomlar: *Chaqqonlar va merganlar.*

O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari nomlarining lingvomadaniy tabiati birinchi navbatda ularning lingvomadaniy kodlar bilan aloqadorligida, aniqroq qilib aytganda, lingvomadaniy kodlar tizimiga kiruvchi birliklar ekanligida ko‘rinadi. Buning sababi shundaki, til sohibi muayyan o‘yin nomining ma‘nosini tushinishi uchun ushbu birlikni dekodlashi, ya‘ni uning ortida turgan muayyan vaziyat bilan bog‘lagan holda uning mazmunini sharhlay olishi lozim. Bunday dekodlash frazeologik birliklar yoki metaforik ma‘noli so‘zlarni dekodlashga o‘xshab ketadi.

O‘zbek tilida faol uchraydigan lingvomadaniy kodlardan biri zoomorf kod hisoblanadi. Ma‘lumki, zoomorf kod deyilganida muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan hayvonlar, qush va parrandalarni bildiruvchi so‘z yoki so‘z birikmalari tayanch komponent bo‘lgan lisoniy (nutqiy) birlik tushuniladi. [11, b.100] Buni o‘zbek tilidagi *tulki* (ayyorlik ramzi), *sher* (mardlik ramzi), *eshak* (ahmoqlik va qaysarlik ramzi) kabi so‘zlarning metaforik ko‘chimlarida ham kuzatish mumkin. O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari atamaları tizimidagi *insiz quyon, xo‘rozlar jangi, eshak mindi, echki*



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

bolalar, tapir-tupur qaldirg‘och, mushuk va sichqon kabi nomlar tarkibida kelgan hayvonlar va qushlarni bildiruvchi so‘zlar (*quyon, xo‘roz, eshak, echki, qaldirg‘och, mushuk, sichqon*) ham, o‘yin mazmunidan kelib chiqib yondashilganida, ma‘lum ma‘noda ramziylik kasb etadi va madaniy semali so‘zga aylanadi. Buni “Echki bolalar” va “Xo‘rozlar jangi” o‘yinlarida qo‘llanuvchi *echki, ona echki va xo‘roz* so‘zlari misolida kuzatish mumkin.

“Echki bolalar” o‘yinida 8-10 ta bola ishtirok etadi. Bolalar (echki bolalari) aylana shaklida turadilar. O‘rtada ona echki ovqat pishiradi (ovqat pishirish harakatlariga taqlid qiladi). Ona echki va uning ikkita bolasi o‘rtasida quyidagicha dialog bo‘ladi:

Birinchi echki bolasi: – *Onajon, ovqat pishdimi?*

Ona echki: – *Yo‘q, birpas o‘ynab tur.*

Ikkinchi echki bolasi: – *Onajon, ovqat pishdimi?*

Ona echki: – *Ha, idishlarni olib kel, ovqatni suzaman.*

Ikkinchi echki bolasi idishlarni olib kelayotganida ularni sindirib qo‘yadi.

Ona echki bolalaridan jahli chiqib, ularni quvlab ketadi. Qaysi bolasini tuta olsa, o‘sha keyingi o‘yinda ona echki bo‘ladi va o‘yin qaytadan boshlanadi. Ushbu ertakdagi echki va ona echki rolidagi o‘yin ishtirokchilarining nomlari – *Echki bola va Ona echki* ushbu o‘yin shartlarini bajaradigan ishtirokchilardir. Ularga nima uchun shunday nomlar berilganini ushbu o‘yin mazmunini anglamay turib idrok qilib bo‘lmaydi. Demak, *echki va ona echki* birliklari o‘yin ishtirokchilarining o‘zaro kelishuviga asosan kodlanadi va lingvomadaniy ma‘noga ega bo‘ladi.

“Xo‘rozlar jangi” o‘yinida esa 2 nafar bola qatnashadi. Ular chizib qo‘yilgan doira ichida bir oyoqlab hakkalab, yelkalari bilan bir-birlarini turtib, doiradan tashqariga chiqarishga harakat qiladilar. Ushbu harakatlar davomida xo‘rozlarning ovozigga taqlid qilib qichqiradilar. Qaysi bola doiradan butunlay chiqarib yuborilsa, o‘sha yutqazgan hisoblanadi. Doira ichida qolgan bola – “xo‘roz” g‘olib hisoblanadi. Ko‘rinadiki, ushbu o‘yinlarda ham *echki, ona echki, xo‘roz* birliklari o‘yin tarkibiga kirgach, milliy-madaniy mazmunga ega bo‘lgan va lingvomadaniy birliklar qatoridan joy olgan. Bu so‘zlarning xalq o‘yinlari tarkibida anglashiluvchi ma‘nosi til sohiblarining o‘zaro kelishuviga asosan kodlangan.

Ma‘lumki, predmetli lingvomadaniy kodlar aksariyat inson maishiy turmushidagi ashyolar nomlarining ramziy ma‘no kasb etishi vositasida yuzaga keladi: *Elakka chiqqan xotinning ellik og‘iz gapi bor, Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi, shohi ko‘rpa bo‘z yamoq, belida belbog‘i bor, ketmoni uchmoq, g‘alvirni suvdan ko‘tarmoq* birliklaridagi *qozon, elak, ko‘rpa, belbog‘, g‘alvir, ketmon* kabi so‘zlar o‘zbek lingvomadaniyatiga mansub kishilarning voqelik va undagi ijtimoiy mun

Ma‘lumki, makon kodi ham lingvomadaniyatshunoslikda asosiy kodlardan biri hisoblanadi. Makon kodi mantiqiy ravishda temporal kodga bog‘liq, chunki zamon va makon tushunchalari inson shuurida assotsiativ tarzda anglanib, bir-birini taqozo etadi. “Makon narsalarning ko‘lamini, o‘zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, zamon hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Ma'lumki, har qanday moddiy jism joyga, hajmga, ko'lamga ega. Makon – vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa makonning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi” [1; 234]. Makoniy kod o'ziniki – begona, uzoq – yaqin, yuqori – past, sharq – g'arb kabi semantik oppozitsiyalar bilan bog'liq bo'lib, dunyoning inson tomonidan qismlarga bo'lingan holda idrok etilishi harakatlari natijasi hisoblanadi [5; 169]. O'zbek milliy harakatli o'yinlari nomlaridan biri hisoblangan “Quyonglar polizda” nomli o'yinda *poliz* so'zi ko'chma ma'noda qo'llanib, quyonglar (o'yin ishtirokchilari) sakrab kiradigan, avtomobil pokrishkalaridan hosil qilingan doirani bildirib, makon lingvomadaniy kodi sifatida voqelanadi. *Poliz* so'zining o'yin ishtirokchilari bostirib kiradigan hudud ma'nosida qo'llanganini bilish uchun o'yin mazmunidan xabardor bo'lish taqozo qilinadi.

Yuqorida aytilganidek, o'zbek milliy harakatli o'yinlarining lingvomadaniy xususiyatlaridan biri ularning o'zbek milliy qadriyatlarini bilan aloqadorligida ko'rinadi. O'yinlar mazmunidan xalqning istaklarini, nimani ma'qullashi va nimani inkor qilishini bilib olish mumkin. “...o'zbek xalqining ming yilliklar bilan bo'ylashadigan teran ildizlari, oziqlangan bebaho qadriyatlarining borligi, ayniqsa, ular ichida xalq o'yinlari singari tengsiz boylikning mavjudligi millat identikligining o'q tomiri, bitmas-tuganmas noyob manbayidir. Bu noyob milliy o'yinlar katta-yu kichikka olam va odamga hurmat mohiyatini anglash, yurtga sadoqat, elsevarlik tuyg'ularini shakllantirish, tabiatni sevish,

uyushib jamoa bo'lish, qiyinchiliklarni birgalikda yengib o'tish, hozirjavoblik ko'nikmalarini o'stirish, tezkor qaror qabul qilish, jamoadoshlarga yelkadosh bo'lish, insonning tani sog'ligi, harakatchanligini ta'minlash imkoniyatini beradi [6; 151].”

O'zbek milliy harakatli o'yinlarini lingvomadaniy fenomen sifatida kuzatish shuni ko'rsatdiki, ularning mazmunida oila qadriyati muhim o'rin egallaydi. Bu, xususan, qizlar uchun mo'ljallangan o'yinlarda ko'zga tashlanadi. Jumladan, “Yaxshi ona“ o'yinida ona qiziga ovqat pishirish, kashta tikish, gullarga suv quyish kabi ro'zg'or ishlarini o'rgatadi. Bu qizlarni uy bekasi maqomiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. “Ona va bola” o'yinida esa ona rolidagi opa singil rolidagi qizining to'zib ketgan sochlarini o'rib qo'yadi, qoshiga o'sma qo'yadi, yangi ko'ylak tikib beradi. “Mehmon keldi” o'yinida esa uy egasi mehmon kutish uchun yordam berayotgan shaxslarni boshqarib turadi. U o'z yordamchilariga dasturxon tuzash, ovqat pishirish, xamir qorish, non yopish kabi yumushlarni buyuradi, ular esa go'yoki shu ishlar bilan mashg'ul bo'ladilar. Bunda hamma o'zining chaqqonligi, yumushkorligini ko'rsatishga harakat qiladi. Mazkur o'yin qizlarni kelgusi hayotga tayyorlashga, muomala madaniyatini o'rganishlariga katta yordam beradi. Yuqoridagi o'yinlarning barchasida oilaning inson hayotida muhim o'rin tutishi, oila a'zolarining, jumladan, ona, qiz farzand, kelinning oiladagi burchi va mas'uliyati hayotiy voqealar misolida ta'kidlangan. Shu sababli bu o'yinlarni “oilal” qadriyatini ifodalovchi lingvomadaniy matn sifatida belgilash mumkin.

Milliy xalq o‘yinlaridan biri bo‘lgan “Cho‘loq qarg‘a” o‘yinida esa sog‘likning eng muhim qadriyatlardan biri ekanligi ta‘kidlangan. Bu fikrimizni ushbu o‘yinning mazmun-mundariyasi asosida dalillaymiz. O‘zbek milliy o‘yinlari tadqiqotchisi Guljahon Mardonova ushbu o‘yinni shunday ta‘riflaydi: “Bu o‘yinda yetti-sakkiz nafar bolalar ishtirok etadi. Ulardan biri “rang sotuvchi”, ikkinchisi “cho‘loq qarg‘a”. Qolgan bolalar “rang”lardir. “Rang sotuvchi” va “rang”lar so‘zlashib turganda go‘yoki eshik taqillaydi.

– Kim u? – deb so‘raydi “rang sotuvchi”.

– Men “cho‘loq qarg‘a”man, – javob beradi “qarg‘a”. – Keling, “cho‘loq qarg‘a”.

– Sizga nima kerak? – so‘raydi “rang sotuvchi”.

– Menga qizil rang kerak, – deydi “cho‘loq qarg‘a”.

– Bizda qizil rang bor. Faqat u qimmatroq turadi, – deydi “rang sotuvchi”.

– Qancha turadi? – deydi “cho‘loq qarg‘a”.

– O‘n besh ming, – narx belgilaydi “rang sotuvchi”.

– Olaman, – deydi “cho‘loq qarg‘a”. “Qarg‘a” narxga rozi bo‘ldi. “Rang sotuvchi” kaftini ochib turadi. “Cho‘loq qarg‘a” esa uning kaftiga o‘n besh marta shapatilaydi. Bu vaqtda qizil rang uzoqlikka qochadi. Uni barcha ranglar olqishlab-qo‘llab turadilar. “Cho‘loq qarg‘a” esa uni quvlaydi. “Rang” jon holatda qochadi. Agar rang chaqqon bo‘lsa qochib kelib, do‘stlari qatoriga qo‘shiladi va o‘yinda davom etadi. Mabodo uni “cho‘loq qarg‘a” tutib olsa, maydon chekkasidagi ramziy “qo‘rg‘on”iga qamab qo‘yadi. Barcha “rang”lar “qarg‘a”ning

qo‘rg‘oniga qamalgach, ular “qarg‘a”ga yalina boshlaydilar.

– “Qarg‘ajon”, bizni qo‘yib yubora qol, iltimos.

– “Qarg‘a” esa:

– Agar siz sog‘lom bo‘lganingizda mening qo‘limga tushmas edingiz. Shuning uchun jismoniy harakat qiling. Buguncha sizlarni qo‘yib yuboraman. Ammo har biringizga shart aytman. Rozimisiz? – deb so‘raydi.

– Aytaqol, shartlaringni bajaramiz, – deydi “rang”lar.

“Cho‘loq qarg‘a” ularning kuchiga, quvvatiga, imkoniyatiga qarab turli shartlar aytadi. Shartlar xilma-xil bo‘lib, jismoniygina bo‘lib qolmay, adabiyot, san‘at, turli fanlardan savollar ham bo‘lishi mumkin. Shartni bajargan “rang” ozod bo‘ladi, bajara olmaganlar qayta-qayta harakat qiladilar” [6; 20-21].

O‘yin mazmunidan ko‘rinadiki, u voqeabandlik xususiyatiga ega. Unda cho‘loq qarg‘a bilan “ranglar” o‘rtasida bo‘lib o‘tgan suhbatda sog‘liq inson uchun eng muhim narsalardan biri ekanligi cho‘loq qarg‘aning nutqi orqali bildiriladi: “Agar siz sog‘lom bo‘lganingizda mening qo‘limga tushmas edingiz. Shuning uchun jismoniy harakat qiling.” Bu mazkur o‘yin mazmuni hayotiy (vital) qadriyatlardan biri bo‘lgan sog‘liq qadriyati bilan bog‘langanidan dalolat beradi. O‘yindan agar inson sog‘lom bo‘lsa, har qanday murakkab sharoitdan ham chiqib keta oladi, degan xulosa kelib chiqadi. Shu sababli “Cho‘loq qarg‘a” o‘yini olamning qadriyatli manzarasi aks etgan lingvomadaniy matn sifatida baholash mumkin.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbek milliy harakatli o‘yinlari nomlarining semantik tasnifi o‘zbek xalqining olamning lisoniy manzarasini yaratishda qanday tushuncha va konseptlardan foydalanganligi haqida muayyan tasavvurni hosil qiladi. Til sohiblari milliy harakatli o‘yinlarni nomlashda odam, hayvonot olami vakillari, o‘simliklar, tabiat hodisalari, predmetlar, xususiyatlar va harakatlarni ifodalovchi so‘zlarga murojaat qilganlar. Ushbu so‘zlarning ayrimlari ramziy ma’noda qo‘llangan bo‘lib, ular xalqning obrazli milliy tafakkuri hosilasidir. O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari nomlarining lingvomadaniy tabiati birinchi navbatda ularning lingvomadaniy kodlar bilan aloqadorligida ko‘rinadi. O‘yinlar matnining

lingvomadaniy hamjamiyat a‘zolari lisoniy xotirasidan joy olib, uzuallashishi natijasida mazkur nomlar lingvomadaniy kod maqomiga o‘tgan. Zoomorf lingvomadaniy kodi, predmetli lingvomadaniy kod, makon lingvomadaniy kodi o‘zbek milliy harakatli o‘yinlarida eng ko‘p uchraydigan kodlar hisoblanadi. O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari o‘z mazmuniga ko‘ra lingvistik aksiologiyaning tadqiq obyekti bo‘la oladi. Mazkur o‘yinlar mazmunida lingvomadaniy hamjamiyat vakillari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, vital qadriyatlar ta’kidlanib, olamning qadriyatli manzarasi namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фалсафа. Комусий луғат. – Тошкент, 2004.
2. Гудков Д.Б., Ковшова М.Л. Телесный код русской культуры. – М.: Гнозис, 2007.
3. Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору) // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М.: МАКС Пресс, 2001.
4. Краснобаева-Чёрная Ж. В. Пространственный код культуры ценностной картины мира (на материале русской, украинской, английской и немецкой фразеологии) // Сибирский филологический журнал. – 2018. – №4. – С.169-180.
5. Кононенко Б.И. Большой толковый словарь по культурологии. – М.: Вече, 2003.
6. Мардонова Г. Ўзбек миллий ўйинлари. – Тошкент: Bookmany Print, 2022.
7. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. – №4 (2). – С. 78-97.
8. Раҳимқулов К. Миллий ҳаракатли ўйинлар: ўқув қўлланма. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2012.
9. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013.
10. Телия В.Н. Большой фразеологический словарь русского языка. – М., 2006.
11. Худайберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015.
12. Худойберганаева Д. Замоновий тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Bookmany Print, 2024.
13. Хо‘jayev F., Rahimqulov K.D., Nigmanov B.B. Sport va harakatli o‘yinlar o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2008.
14. Usmonxo‘jayev T.S., X o‘jayev F. 1001 o‘yin. – Toshkent, 1990.
15. Usmonxo‘jayev T.S., Meliyev X. Milliy harakatli o‘yinlar. – Toshkent, 2000..